

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK  
SALOHIYATINI OSHIRISH**

**Muxtorova Munisaxon Anvarjon qizi**

*Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti*

*“Boshlang'ich ta'lim” yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annottatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobga bo'lgan qiziqishini aniqlash va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va psixologiyasiga mos keladigan kitoblarni to'g'ri tanlay olish va o'quvchilarning kitobxonlik salohiyatini oshirish bo'yicha bir qator takliflar berib o'tilgan. Dunyoda xususan, mamlakatimda ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilayotgani haqida ham ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobga bo'lgan qiziqishini qanday aniqlash ham keltirib o'tilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va psixologiyasiga mos keladigan kitoblar ro'yxati ham keltirilib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kitobxonlik, boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich ta'lim o'quvchisi, o'qituvchi, kitob, kitobxonlik salohiyati, ta'lim tizimi, kitobxonlik madaniyati.*

**Kirsh.**

Bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha turli xil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada ta'lim tizimiga yil sayin yangidan-yangi o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, darsliklarning yangilanishi, maktablarning zamonaviy talablarda ta'mirlanishi, o'qituvchilarni maktablarga ishga olishda qo'yilayotgan talablar, maktab va maktabgacha ta'lim tizimida multimedia vositalarining sonini oshirish va shu kabi bir qator yangiliklarni misol tarzda ko'rishimiz mumkin. Bu borada bir qator yangiliklar hozirgi kunda juda ham ko'p. Ta'lim tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda kitobxonlik salohiyatni rivojlantirish ishlari ham keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Negaki ta'lim tizimi va kitobxonlik bir-biriga chambarchas bog'liq. Mamlakatni yuksaltirish maqsadida ta'lim tizimiga ahamiyat qaratilayotgan bir paytda kitobxonlikni chetda qoldirib bo'lmaydi. Chunki, ta'lim olish uchun har bir o'quvchi kitob asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Aynan shu bois ham muhtaram prezidentimiz bugungi kun yoshlariga qayta-qayta kitob o'qishni va kitob o'qigan inson hech qachon hayot yo'lida qoqilmas ekanligini takror va takror ta'kidlab kelmoqdalar.

Kitobxonlik salohiyatini oshirish borasida bugungi kunda mamlakatizda turli xil tanlovlar onlayn va oflayn tarzda malga oshirib kelinmoqda. Kitob o'qigan yoshlarni

qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritganlarga o'z navbatida qimmatbaho sovg'alar topshirilmoqda. Bu esa yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularga motivatsiya berish demakdir.

Kitobxonlik salohiyatini oshirish uchun albatta, o'quvchilarni ilk harf tanigan kunlaridan boshlab, ularda kitobga bo'lgan muhabbatni uyg'ota olish lozim. Agar o'quvchilarni boshlang'ich sinfda o'qiyotgan paytlarida, ularni kitobga bo'lgan muhabbatini uyg'otish bu o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Agarda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarida kitobga muhabbatni uyg'ota olsa, bu o'quvchilarning kitobga bo'lgan muhabbati ularning kelgusi ishlarida yuksak poydevor vazifasini bajarib beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik salohiyatini oshirishdagi dastlabki qadamni, albatta, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi qo'yib beradi.

Butun dunyoda, jumladan mamlakatimizda ham o'quvchi va yoshlarning kitobxonligini oshirish yuzasidan juda ham ko'p olim va olimalar amaliy va nazariy ilmiy ishlar olib borilgan, Xususan, o'quvchi-yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishning sotsiologik, kutubxonashunoslik, psixologik va pedagogik omillari E.Yo'ldoshev (kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish), A.Umarov (komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli), Y.Qayumxo'jaeva (mustaqillik davrida maktab kutubxonalarida kitobxonlik masalalari), A.Abdulazizov (mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayonining sosiologik tahlili), D.G'anieva (o'quv jarayonining metodik ta'minotida kutubxonachi va o'quv fanlari o'qituvchilari hamkorligi), S.Chinievalar (o'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar shakllantirish) tomonidan yoritib berilgan.<sup>4</sup>

Shuningdek, hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarning kitobxonlik salohiyatini oshirishga doir turli xil ilmiy maqolalar ham yozib kelinmoqda. Dunyoning xususan, mamlakatimizning o'zida ham bir qancha ilmiy shaxslari ushbu masala bo'yicha turli xil ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Masalan, Xo'jayeva Nigora va Olimov Temur Xasanovichlarning "Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish" mavzusida yozilgan ilmiy maqolasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini faol kitobxonlikka o'rgatish, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tadbirlar, kichik maktab

<sup>4</sup> Йўлдошев Э. Кутубхонада болалар ўқишига раҳбарлик қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 128 б; Умаров А.О. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Социология фанлари доктори диссертация автореферати. – Тошкент, 2005. – 56 б; Каюмхўжаева Ё. Ўқувчиларнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш имкониятлари. – Тошкент: ТДМИ, 2007. – 48 б; Ганиева Б.И. Бoshlang'ich sinf ўқувчиларида кутубхоначилик библиография билимлари тарғиботи. – Тошкент, Фан ва технологиялар маркази, 2006. – 34 б; Чиниева С.А. Ўзбек oilalarida китобхонлик воситасида ўсмирлар маданиятини шакллантириш. – Тошкент, 2006. – 26 б.

yoshidagi o'quvchilari hayotida o'qish faoliyatining ahamiyati kabi masalalarni yoritib o'tishgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda "O'qish savodxonligi" darslarini samarali tashkil etishning ahamiyati haqida ham fikr yuritishgan. Qahramonov Aliboy Yolgoshevich, Komolova Xonzoda Shermuxammad qizi va Mirashurova Zaxro Ilxomovnalarning "O'quvchilarining ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda kitobxonlikning ahamiyati" mavzusida yozilgan ilmiy maqolasida esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va bunda uchraydigan ayrim muammolar haqida, shuningdek ushbu muammolarni yechishning ayrim usullari haqida mulohaza yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobga bo'lgan muhabbatini uyg'otish kabi dolzarb masalaga Xolmurod Xidirov va Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi o'zlarining "Ta'lim tizimida bolalarning badiiy adabiyotga qiziqishini shakllantirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy maqolalarida, maktab o'quvchilarining badiiy kitoblarga bo'lgan qiziqishining pasayishiga sabab bo'layotgan asosiy omillarni keltirib o'tishgan. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy kitob o'qishining pasayishiga quyidagi omillarni keltirib o'tishgan:

- ommaviy axborot vositalari ta'sirining kuchayishi, o'quvchilarning soatlab televizor va kompyuter qarshisida o'tirishlari;

- farzand tarbiyasiga befarq oilalar sonining ko'payishi, ularda farzandlarning ma'naviy-axloqiy, intellektual rivojlanishiga e'tibor qaratilmasligi;

- kattalarning bolalar bilan birgalikda kitob o'qishga bo'lgan intilishlarining to'liq namoyon bo'lmasligi, 1-sinfga qadam qo'ygan o'quvchilarga kattalar tomonidan kitoblarning o'qib berilmasligi, rang-barang badiiy asarlar bilan o'quvchilarni tanishtirish yo'nalishidagi faoliyatning mavjud emasligi <sup>5</sup>va shu kabi muammolarni keltirib o'tishgan. Bu muammolarni hal etish va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning badiiy kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini uyg'otish bo'yicha o'zlarining takliflarini berib o'tishgan.

#### **Asosiy qism.**

Darhaqiqat, bugungi kunda kichik maktab yoshidagi ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik salohiyatini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy ishlarni olib borar ekanmiz, bu maqsadimizga erishishimiz uchun yo'limizda turgan muammolarni bartaraf etimiz zarur. Aynan, shu muammolarni Xolmurod Xidirov va Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi o'zlarining yuqorida keltirib o'tilgan, ilmiy maqolasida yetarlicha ko'rsatib o'tishgan. Ushbu maqoladagi fikrlar haqiqatdan ham

---

<sup>5</sup> Xolmurod Xidirov va Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi o'zlarining "Ta'lim tizimida bolalarning badiiy adabiyotga qiziqishini shakllantirishning dolzarb masalalari".

o'quvchilarning kitobxonlik salohiyatini oshirishda yuzaga keladigan asosiy muammolar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarning kitobxonlik salohiyatini oshirish yo'lida ularning sinf rahbari va ota-onasi hamkorlikda ish olib borishi zarur. Demak kitobxonlikni rivojlantirish va boshqa sohalarni rivojlantirishda ham asosan har tomonlama harakat qilish kerak. Chunki, qayiqqa chiqqan inson ham ikkala eshkakni aylantirgandagina oldinga siljishi mumkin. Agarda, faqatgina birgina eshkakni aylantirsa, qayiqdagi inson hech qachon oldinga siljiy olmaydi va turgan joyida aylanaveradi. Shunday ekan o'quvchilarning kitobxonlik salohiyatini oshirishda dastlabki qadan ota-ona va o'qituvchining hamkorligi.

O'quvchida kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otishda uning ota-onasi dastlabki qadamni qo'ygan bo'lishi ham mumkin, qo'ymagan bo'lishi ham mumkin. Ammo, bola maktabga borgan ilk kunidanoq unga o'quv qurollari orasida asosiysi bo'lgan kitob ham beriladi. Avvaliga, o'quvchilar kitobdan birdagina foydalanishmaydi, dastavval kitob haqida ma'lumot va undan to'g'ri foydalanish, kitobni asrash haqida o'qituvchi tomonidan ma'lumot beriladi. Kitobga muhabbatni ham anu shu jarayonda uyg'ata olish kerak. Buning uchun avvalo, o'qituvchidan o'quvchiga nisbatan yaqin bo'lishi, o'quvchining ko'ngliga yo'l topishi va undagi kitobga bo'lgan muhabbatning bor yoki yo'qligini bilish talab etiladi. Buni o'qituvchi qanday aniqlay olishi mumkin? O'qituvchidan bu jarayonda sinchkov va e'tiborli bo'lishi talab etiladi yoki o'qituvchi o'zining kreativligidan kelib chiqqan holda, yangicha usullardan, o'quvchilarning yoshi va psixologiyasida kelib chiqqan holda metodlardan foydalanishi mumkin. Masalan anketa metodini olaylik, anketa metodi to'la to'kis holda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos kelamasligi mumkin. Ammo bu metodning ba'zi jihatlari o'zgartitib, undan foydalanish mumkin. Anketa metodi bilamizki, qo'yilgan savollarga javob olish yordamida amalga oshiriladi. Lekin, 1-sinf o'quvchilari o'qish va yozish ko'nikmasiga ega bo'lishmaydi. Ularning yoshlarini hisobga olgan holda, beriladigan savollarni imkon qadar, bolalarcha berish lozim. Masalan, o'quvchilarga savollarni yozma tarzda emas, balki, og'zaki tarzda berish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning kitob haqida qanchalik ma'lumotga ega ekanliklari va ularda kitobning bor yoki yo'qligi haqida ma'lumot olishi mumkin bo'ladi. O'quvchilarning kitob haqidagi ko'nikmalarini anketa metodi orqali aniqlab olingandan so'ng ularda kitobga bo'lgan muhabbatni uyg'otish lozim bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lganliklari uchun juda ham qiziquvchan bo'lishadi. Ular o'qituvchilariga nisbatan kuzatuvchan bo'lishadi va o'qituvchilariga taqlid qilishga harakat qilishadi. O'quvchilarning qiziquvchanligidan unumli foydalangan holda, o'qituvchi o'quvchilari qiziqqan mavzu yuzasidan, qiziqarli ma'lumot aytishi mumkin. Bu o'quvchining kitobga bo'lgan muhabbatini



uyg'otishdagi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi. Qanday qilib degan savol tug'ilishi mumkin. Bu shunday amalga oshadi: O'qituvchi tomonidan berilgan qiziqarli ma'lumot, o'quvchida qiziqish uyg'otganidan keyin, u albatta o'qituvchisidan, bu ma'lumotni qayerdan bilishini so'rashi mumkin. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchisi, ayniqsa, 1-sinf o'quvchilari juda ham qiziquvchan va o'qituvchisiga turli xil savollar berishni yaxshi ko'radi. Aynan shu vaziyatda, o'qituvchi ushbu qiziqarli ma'lumotni qayerdan olgalligini aytishi va shu kabi qiziqarli ma'lumotlarni kitoblardan topish mumkinligi haqida aytishi orqali, o'quvchida kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi mumkin. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarida kitobga bo'lgan muhabbatni uyg'otti endi navbat o'quvchilarning kitobxonlik salohiyati va ushbu salohiyatni oshirish. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini to'g'ri shakllantirish ularning kitobxonlik salohiyatini oshirishdagi yetakchi vosita hisoblanadi. Bu bortada o'qituvchidan kuzatuvchanlik, ya'ni o'quvchilarining qanday kitob o'qiyotganligidan habardor bo'lishi va o'quvchini aynan qanday mavzudagi kitoblar qiziqtirayotganini aniqlab borishi kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ya'ni 1-2-3-4-sinf o'quvchilari hisoblanadi. Shunda bir savol tug'uladi: "O'quvchilarning kitobxonlik salohiyati oshirish yuzasidan turli izlanishlar olib borar ekanmiz, aslida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va yosh salohiyatidan kelib chiqqan holda ularga qanday kitoblarni o'qishni tavsiya qilishimiz mumkin?" . Demak biz o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini aniqlab oldik, tasavvur qilaylik o'quvchilarimizni kitobxon qilib tarbiyalayabmiz. O'quvchilarimizning kitobxonlik salohiyatini oshirishga harakat qilyabmiz. Bu yo'lda ularning anday kitob o'qiyotgan ekanliklarini anketa metodi orqali aniqlab bormoqdamiz. Ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilarimizning qanday kitoblarni qiziqib o'qiyotganliklarini aniqlab bormoqdamiz. Lekin, aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik salohiyatini oshirishda o'quvchilar qanday kitob o'qishlari kerak? Bilamizki, kitoblar ham ba'zi bir xususiyatlariga ko'ra yosh tanlaydi. Chunki, aynan bir kitobni har xil yoshdagi odam har xil o'qiyda va har xil tushunadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning kitobxonlik salohiyatini oshirishda qanday kitoblardan foydalanish kerakligi haqida o'qituvchining o'zi ham yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki, o'quvchining bilim salohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri kitob tanlay olishi uning kitobxonlik salohiyatini oshirishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tavsiya etilgan kitoblar ro'yxatini keltirib o'taman.

### **1-4-sinflar uchun tavsiya qilinadigan kitob turlari:**

#### **I. Ertaklar va afsonalar**

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

1. Mashhur xalq ertaklari (masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Bo‘ri va echki bolalari”)

2. Dunyodagi mashhur ertaklar: Andersen, Grimm ertaklari

3. Mahalliy mualliflarning ertaklari (Xudoyberdi To‘xtaboyev, H. Olimjon, G‘. G‘ulom)

## II. Qiziqarli hikoyalar

1. G‘afur G‘ulom – “Shum bola”

2. Xudoyberdi To‘xtaboyev – “Sariq devni minib”

3. Abdulla Qahhor – qisqa bolalar uchun hikoyalar

4. Nodirabegim – bolalar she‘rlari

## III. O‘rgatuvchi va axloqiy kitoblar

1. Yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlashga yordam beradigan hikoyalar

2. Vatanparvarlik, do‘stlik, mehr-oqibat, halollik kabi mavzularni o‘z ichiga olgan kitoblar

## IV. She‘rlar to‘plami

Bolalarga mos, yodlash oson, o‘yinli va quvnoq she‘rlar (Cho‘lpon, Erkin Vohidov, Zulfiya)

## V. Ilmiy-ommabop kitoblar (bolalar uchun)

Hayvonot olami, o‘simliklar, kosmos, texnika haqida rasmlı va tushunarli tarzda yozilgan kitoblar

## VI. Rasmlı kitoblar

Ayniqsa 1–2-sinf o‘quvchilari uchun — ko‘p rasmlı, qisqa matnli kitoblar o‘qishga rag‘bat uyg‘otadi. Rasmlı kitoblar qatoriga komikslarni ham kiritishimiz ham mumkin. Chunki, asosan komikslarda matnlardan ko‘ra rasmlar ko‘proq bo‘ladi va ana shu rasmlar orqali hikoya hosil qilinadi. Yoki oddiy rasmlar tushirilgan rasmlı kitoblarni ham bu kitoblar qatoriga kiritishimiz mumkin. Msalan, mevalar, hashorotlar va hayvonlarning rasmlı tushirilgan kitoblar ham rasmlı kitoblar qatoriga kiradi. Bu kabi kitoblarning qatoriga juda ko‘plab kitoblarni kiritish mumkin, lekin asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga shu turdagi kitoblarni o‘qish tavsiya etiladi.

## Xulosa.

Yuqorida keltirib o‘tilgan kitoblardan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik salohiyatini oshirish mumkin. Ko‘rib turganimizdek, o‘quvchilarni kitobga bo‘lgan muhabbati orqali ularni kitobxonlikka o‘rgatish mumkin. O‘quvchini kitobga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri shakllantirish bilan bir qatorda, o‘quvchini to‘g‘ri kitob tanlashga ham o‘rgatish lozim. Chunki, o‘quvchining yoshiga to‘g‘ri tanlangan kitob, o‘quvchining psixologiyasiga ham mos keladi va kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi. Boshlang‘ich

ta'lim o'qituvchisi o'quvchilarining kitobxonlik salohiyatini oshirishda o'quvchilarini to'g'ri yo'nlatirishi uchun avvalo, o'quvchining kitob haqida fikrini o'rganib chiqishi va o'quvchilarining to'g'ri kitob tanlashiga yordam berishi lozim. Shu tariqa o'quvchining kitobxonlik salohiyatini oshirish samarali bo'lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 128 b;
2. Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sotsiologiya fanlari doktori dissertatsiya avtorreferati. – Toshkent, 2005. – 56 b;
3. Qayumxo'jaeva Yo. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – Toshkent: TDMI, 2007. – 48 b;
4. G'anieva B.I. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kutubxonachilik bibliografiya bilimlari targ'iboti. – Toshkent, Fan va texnologiyalar markazi, 2006. – 34 b;
5. Chinieva S.A. O'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar madaniyatini shakllantirish. – Toshkent, 2006. – 26 b.
6. Axadjon o'g'li, A. A., & Tursunboy o'g'li, N. J. (2023). SANOATNING YAIMGA TA'SIRINI BAHOLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 290-293.
7. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O'RNI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 271-273.
8. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 333-338.
9. Azamjon o'g'li, U. A., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 73-75.
10. Tursunboy o'g'li, N. J., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 43-47.
11. Ahrorjon, A., & Gafurov, X. (2023). IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA FISKAL VA PUL-KREDIT SIYOSATI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 310-313.

12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). CHATGPTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: SUN'IY INTELLEKTNING KASBIY MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 65-71.
13. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). ISLAMIC FINANCE PROBLEMS AND SOLUTIONS: Study guide. *AMAZON PUBLICATION ISBN-13: 9798863282282*, 1, 200.
14. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOMIY MOLIYA BARQARORLIK OMILLARI: EKONOMETRIK TAHLILLAR VA DALILLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 74-94.
15. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O'RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 113-118.
16. Акабирходжаева, Д. Р., & Абдуллаев, А. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ НА РАЗВИТИЕ МИРОВОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 729-739.
17. Akabirxodjayeva, D., & Abdullayev, A. (2024). TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARNING JAHON MOLIYA BOZORINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 89-96.
18. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ISLOM MOLIYASI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 188-190.
19. Keldiboyeva, Z. M. Q., & Abdullaev, A. A. O. G. L. (2022). Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar, inklyuziv ta'limga jalb qilish. *Science and Education*, 3(11), 704-711.
20. Oybek, A., Abdullaev, A., Mavlonbekov, X., & Sharifjonov, Z. (2023). ISLOM MOLIYASIDA MUSHORAKA SHARTNOMASI. *Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari*, 2(1), 593-599.
21. Turanboyev, B., Abdupattayev, A., & Abdullaev, A. (2023). INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI. *Yosh tadqiqot Jurnal*, 2(2), 88-100.
22. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOM BANK TIZIMI UCHUN SHARTNOMA HUQUQI VA ASOSIY TAMOIYILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 600-613.
23. Abdullaev, A. (2022). BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO'SHGAN HISSASI. *NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR*, 1.



24. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIYADA ISLOMIY MOLIYA, TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 60-64.
25. Mulaydinov, F. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
26. Jumanova, S. (2024). Analysis of PISA test results in Uzbekistan and prospects of preparing primary education students for PISA test. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
27. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 159-162.
28. Turanboyev, B., & Abdullayev, A. (2023). DAVLAT, KORXONA VA TASHKILOTLAR BYUDJETINI TO 'G 'RI TAQSIMLASH TENDENSIYALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 304-309.
29. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
30. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). The Role of WTO in Improving the Quality of Education. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.